



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish... <b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

3. Islomov, J., & Tursunov, B. (2015). Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va O‘zbekiston korxonalarini faoliyatiga ta’siri. *Iqtisodiyot va Moliyaviy Tadqiqotlar Jurnali*, 3(1), 45–62.
4. Karimov, F., & Usmonova, N. (2022). Korxonalarda xarajatlarni hisobga olish va tannarxni shakllantirish: O‘zbekiston tajribasi. *Moliyaviy-Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali*, 5(2), 15–32.
5. Qodirov, D. A. (2017). Sanoat korxonalarida tannarx tahlili (pp. 90–115). Toshkent: Fan.
6. Rustamov, A., & Tursunova, D. (2020). Ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish va korxonada samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar. *Iqtisodiyot va Boshqaruv Jurnali*, 12(4), 1–28.
7. Shodmonov, Sh., & G‘afurov, U. (2019). Korxonada iqtisodiyoti (pp. 112–135). Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Tursunov, B. O. (2020). Boshqaruv hisobi (pp. 78–101). Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Xolmatov, S. X. (2018). Ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxni boshqarish (pp. 54–79). Toshkent: Iqtisod-Moliya.
10. Yo‘ldoshev, K. M. (2020). Boshqaruv hisobi va audit asoslari (pp. 121–144). Toshkent: Iqtisodiyot.

**UDK:330.34**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI VA INVESTITSIYA DASTURLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI**

**РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОГРАММ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**THE ROLE OF INVESTMENT POLICY AND INVESTMENT PROGRAMS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Akbaraliyev Abbosbek Erkinjon o‘g‘li.** Andijon Davlat texnika instituti  
1- kurs “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya**

Maqolada investitsiya siyosatining ilmiy-nazariy asoslari, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda O‘zbekistonda investitsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlarida tutgan o‘rni, ularning afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida investitsiya yo‘nalishlarining holati tahlili, mavjud to‘siqlar va muammolar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, siyosat, zamonaviy texnika, liberal investitsiya, iqtisodiy o‘shish, tovar-pul,

В статье подробно рассматриваются научно-теоретические основы инвестиционной политики, роль приоритетных направлений инвестиционной политики в Узбекистане в повышении конкурентоспособности национальной экономики, их преимущества и недостатки, анализ состояния инвестиционных направлений в национальной и мировой практике, а также существующие барьеры и проблемы.

**Ключевые слова:** инвестиции, политика, современная техника, либеральные инвестиции, экономический рост, товарно-денежные отношения.

The article thoroughly examines the scientific and theoretical foundations of investment policy, the role of priority areas of investment policy in Uzbekistan in enhancing the competitiveness of the national economy, their advantages and disadvantages, an analysis of the current state of investment directions in national and global practice, as well as existing barriers and challenges.

**Keywords:** investment, policy, modern technology, liberal investment, economic growth, commodity-money relations.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu — davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni ko‘llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo‘lgan davlat tomonidan rag‘batlantiriluvchi yo‘nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

Investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining nazariy hamda amaliy jihatlari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy ishlarda investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdagi o‘rni, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish masalalari davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan strategik hujjatlar va murojaatnomalarda muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning[1] Oliy Majlisga murojaatnomalarida investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan

Investitsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish masalalari Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasida e‘lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ularda investitsiya faoliyati subyektlari huquqlari, davlat kafolatlari va investitsiya dasturlarini amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgan .

D.G. G‘ozibekovning[4] ilmiy ishlarida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati hamda investitsiya dasturlarining samaradorligini oshirish masalalari batafsil tahlil qilingan Muallif investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishdagi hal qiluvchi rolini ilmiy asoslab beradi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining mazmuni, ustuvor yo‘nalishlari va iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi.

Xususan, tizimli tahlil usuli orqali investitsiya dasturining tarkibiy elementlari, ichki va tashqi investitsiya siyosati hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida milliy investitsiya siyosati yo‘nalishlari jahon amaliyotidagi investitsiya jarayonlari bilan solishtirildi hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli asosida investitsiyalar hajmi, moliyalashtirish manbalari, tarmoqlar va hududlar kesimidagi investitsiya ko‘rsatkichlari baholandi. Rasmiy statistik ma‘lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarida keltirilgan ko‘rsatkichlar tadqiqotning axborot bazasini tashkil etdi.

Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish va induksiya-deduksiya usullari orqali investitsiya dasturining iqtisodiy samaradorligi baholanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda ilmiy xulosalar shakllantirildi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar investitsiya dasturining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilish, ishonchli xulosalar chiqarish hamda maqolaning ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga xizmat qildi. Xorijiy investitsiya faqat ishlab chiqarish va bozor rivojlangan sharoitda, ya‘ni xalqaro bozordagi sarmoya eksporti bungacha mavjud bo‘lgan tovarlar eksportidan yuqori bo‘lganda paydo bo‘ladi. Davlat investitsiya jarayonini tashkil qiluvchi va asosiy investor bo‘lib xizmat qilishi kerak – ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan bu uning asosiy vazifasi hisoblanadi. Investitsiyalarning miqdoriy o‘shishi ichki investitsiya dasturi (mablag‘larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga safarbar qilish) vositasida ta‘minlanadi. Investitsiyalar sifatining o‘shishi ichki (fan va texnika yutuqlarini tatbiq qilish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar – texnik tarkibi va xususiyatiga ko‘ra yuqoriroq bo‘lganlarini jalb etish) vositasida ta‘minlanadi. Ichki investitsiya dasturi xam tashqi investitsiya dasturi xam, har ikkalasi investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakllardagi investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini nazarda tutadi. Investitsiya dasturining mohiyati va mazmuni eng qulay huquqiy vositalarni topish – investitsiya jarayoni va investitsiyani huquqiy tartibga solishdan iborat. Ratsional investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida

huquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy-huquqiy va xalqaro-huquqiy. Davlatning tashqi investitsiya dasturi huquqiy nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratishdan iborat bo‘lib, bu milliy huquqiy tartibot, milliy huquqiy shakllar va normalardan (qonunlar va boshqa me‘yoriy aktlar) xamda xalqaro-huquqiy tartibot, xalqaro-huquqiy shakl va normalardan (ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasida xam ichki xam tashqi investitsiya siyosatlari hisobga olinishi shart. Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifasi (funktsiyasi) davlatning jamiyatda moddiy va ma‘naviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mablag‘larini safarbar qilish bo‘yicha faoliyat yuritishidan iborat.

Investitsiya faoliyati (ingl. investment activity) – bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha olib boriladigan amaliy harakatlarning yig‘indisidir. Investitsiya dasturi alohida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari subyektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning subyektlarining investitsiyani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatlari yig‘indisidir. Davlat fuqaroviy va xalqaro xususiy huquq subyektlarining birortasi ega bo‘lmagan xususiyatga ega. U bir vaqtning o‘zida jamoat hokimiyatining egasi (ichki va tashqi siyosat yo‘nalishlarini belgilaydi, davlat strategik dasturlarini, shu jumladan iqtisodiyotning strategik masalalarini hal etishga qaratilgan investitsiya dasturlarini qabul qiladi) va xususiy huquq munosabatlari qatnashchisi (bu erda uning investitsiya faoliyatida ishtirok etishi xam nazarda tutilgan) hisoblanadi. Shunday qilib, investitsiya faoliyati tushunchasi investitsiya dasturi tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lib, buni O‘zbekiston Respublikasi «Investitsiya faoliyati haqida»gi qonunining 14 va 15 moddalari yorqin aks ettirgan. Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida uncha katta ahamiyatga ega emas. Chunki o‘z-o‘zini boshqaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ustuvor yo‘nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchi ustuvor yo‘nalish – ommaviy turar joy qurilishi;

ikkinchi ustuvor yo‘nalish – zamonaviy kommunikatsiya vositalari, transport va aloqa vositalarini ishlab chiqarish, transport va informatsiya tarmoqlarini yaratish va modernizatsiya qilish;

uchinchi ustuvor yo‘nalish – yuqori texnologiyalar. YUkori texnologik va jahon bozorlarida raqobatbardosh, import mollarining o‘rnini bosa oladigan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish.

to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish – zaxiralarni tejovchi, ekologik toza texnologiyalar. Mineral boyliklarni yer ostidan qazib olish va tabiiy xom ashyoni to‘liq va kompleks qayta ishlash uchun eng yangi fan-texnika yutuqlaridan foydalanish.

beshinchi ustuvor yo‘nalish – fermerlik va dexqon xo‘jaliklari tarmogi, ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash, transportirovka qilish, sotish va shifobaxsh qo‘shilmalari bo‘lgan ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha andozalarga amal qilgan holda nazorat qilish texnologiyasini o‘zlashtirib olgan qayta ishlovchi va savdo korxonalarining ko‘magi asosida ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarish

Prognozda markazlashgan va markazlashmagan kapital qo‘yilmalar manbalari hisobga olinishi zarur:

A) Markazlashgan kapital qo‘yilmalar. U o‘z navbatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat byudjet va nobyudjet fondlarining mablag‘lari;
- davlat kafolati asosida beriladigan chet el kreditlari va investitsiyalari.

B) Markazlashmagan kapital qo‘yilmalar:

- korxonalarining mablag‘lari;
- davlat va boshqaruv organlarining mablag‘lari;
- banklarning tijorat kreditlari;
- aholining mablag‘lari.

Taqqoslama ro‘yxat investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatuvchi prospekt hisoblanadi. Taqqoslama ro‘yxatga kiritilgan investitsiya bo‘yicha:

- doim monitoring va dastur tuzishning har bir bosqichiga injenering kuzatuvlaridan o‘tadi;
- davlat kafolat-ostida chet el kredit liniyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

Investitsion loyihalarning manzili dasturi har yili ishlab chiqilib, moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

Investitsion loyihalarning manzili dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:

- texnik — iqtisodiy asoslarning mavjudligi;

- shartnomada ko‘rsatilgan kreditlarning vaqtida qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig‘ining mavjudligi ham zarur.

O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Mazkur dastur doirasida investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya dasturida uy-joy qurilishi, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ekologik toza va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishlarga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Investitsiya dasturining moliyalashtirish manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar asosan markazlashgan va markazlashmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Markazlashgan manbalarga davlat byudjeti, nobyudjet fondlar hamda davlat kafolati asosida jalb etilgan xorijiy kreditlar kiradi. Markazlashmagan manbalarga esa korxonalar mablag‘lari, banklarning tijorat kreditlari va aholining jamg‘armalari kiradi. Bu manbalarning uyg‘unligi investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta‘minlamoqda.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilinib, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishdagi ahamiyati aniqlandi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar tashkil etilishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va import o‘rnini bosuvchi tovarlar hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalari investitsiya jarayonlarida qator muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi, investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi murakkabliklar, byurokratik tartib-taomillarning mavjudligi investitsiya faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, investitsion loyihalarni tanlash va monitoring qilish jarayonlarida samaradorlikni oshirish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Investitsiyalarni ustuvor yo‘nalishlarga samarali yo‘naltirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o‘shishga erishish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi mamlakat iqtisodiyotini barqaror va jadal rivojlantirishda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Investitsiya dasturi orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga erishilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash va investitsiya resurslarini samarali taqsimlash iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarida byurokratik to‘siqlar, infratuzilma yetishmovchiligi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Investitsiyalarni huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda investorlar huquqlarining kafolatlanganligini kuchaytirish zarur.

2. Davlat boshqaruvi tizimida byurokratik tartib-taomillarni qisqartirish, ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish va raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish lozim.

3. Yuqori texnologiyali, innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan investitsion loyihalarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

4. Hududlar kesimida investitsiya faolligini oshirish uchun transport, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish tavsiya etiladi.

5. Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish orqali investitsiya resurslarini jalb etish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini izchil va samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 26.12.2025 dagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [ <https://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54> ]
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasi // *Xalq so‘zi* gazetasi, 2018-yil 29-dekabr. [ <https://xs.uz> ]
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. [ <https://lex.uz> ]
4. G‘ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: “Moliya”, 2003. – 332 b. [ [https://tsul.uz/media/tpkccatrub21\\_12\\_12\\_23\\_10.pdf](https://tsul.uz/media/tpkccatrub21_12_12_23_10.pdf) ]
5. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2022-yil yanvar–dekabr. –Toshkent, 2023.–519b. [ <https://stat.uz> ]
6. S&P Global Ratings: O‘zbekiston reyting prognozi bo‘yicha axborot. [ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/07/tashqi-qarz/> ]